

YUMSHOQ KUCH

Turabekov Elbek

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti, siyosatshunoslik
yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Tel raqam: +998979311415
Email: TurabekovElbek@gmail.com

Annotatsiya: Yumshoq kuch siyosati hozirda aqilli mamlakatlarning asosiy quroli bo‘lib qolmoqda. To‘g‘ri mamlakatlar asrlar davomida qattiq kuchdan (*hard power*) dan foydalanib kelgan, lekin bu nafaqat insoniyatga balki, tabiatga yokida yashab turgan yer sharimizga zarar keltirgan va keltiradi. Hozirgi zamonaviy hayotimizda zamonaviy qurollar (*nuclear weapons*) butun insoniyatni yo‘q qilib yuborishi mumkin bo‘lgan davrda, biz qurol orqali emas balki, aynan yumshoq kuch orqali ham g‘alaba qozonishimiz mumkin. Aks holda, Dunyodagi yadroning 1%igina yerni yo‘q qilishga yetadi, o‘z-o‘zidan ma‘lumki hozirgi davrda qurol ishlatish butun insoniyatning kelajagiga xavf bo‘lib qolmoqda. Qattiq kuchning xavflari edi bular. Aslida, kitobda qattiq kuch haqida gap bormagan asosan, yumshoq kuchning amalga oshirish siyosati haqida so‘z yuritiladi. Falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, Jozef Nay shunday demoqchi; Kuchning kuchi-buyruq yoki do‘q-po‘pisa qilishda emas, balki unga hurmat va havas bilan qarashda. Ya‘ni ko‘pchilik kuchni ko‘proq buyruqqa, qo‘rqitishga yokida zo‘rovonlikka soslansa u kuch deb qaraladi. Lekin aslida, kuchning shunday ko‘lami borki ba‘zan nisbiy bo‘lishi mumkin, teskari ta‘sir ko‘rsatishi mumkin, Jozef Nay kitobida bular haqida aytgan kuchni shu sababli ikkiga ya‘ni; yumshoq va qattiqqa bo‘lgan. Kitobda AQSHning yumshoq kuchdan qanday foydalangani va qayerlarda xatolarga yo‘l qo‘ygani aytilgan. ‘Qattiq kuch o‘zgalar xatti-harakatlarini majburlash orqali o‘zgartirish qobiliyati bo‘lsa, yumshoq kuch boshqalar xohishini shakllantirishdir.{2}

Kalit so‘zlar: Yumshoq kuch, AQSH, mamlakatlar, qurol, siyosat, dunyo.

Abstract: Great power politics is currently the main weapon of intelligence. The right countries are empowered by centuries of hard power, but it is natural that has harmed humanity, nature, or our living planet. In our current modern life, when modern weapons (*nuclear weapons*) can destroy all humanity, we can win not by weapons, but by new power. Only 1% of the world's nuclear weapons will reach the earth, and it goes without saying that today's weapons are larger than humanity's future. These were the conditions of hard power. In fact, the book doesn't talk about hard power, but the implementation of software power controls. in respect and admiration. In other words, most people use power to order, intimidate or use violence, and it is considered power. But in fact, there is such a scale of power that sometimes it can be relative, it can have the opposite effect, that's why the power that Joseph said about these things in his book was divided into two, i.e., soft and hard. In

the book, the US . told how to feed from strength to health and where to make mistakes..(Jozef Nay,32,p)

Key words:Soft power, USA, countries, weapon, politics, world.

Yuqorida aytib o’tildiki Jozef Nayning ‘Yumshoq kuch’ kitobini yozganligi, aslida kim Jozef Nay? Jozef Nay 1937-yil Amerikada tug’ilgan. U neoliberalizmning xalqaro munosabatlar nazariyasiga asos solgan. U fanga birinchi bo’lib ‘yumshoq kuch’ atamasini olib kirgan [Jozef Nay,2003,p 9] . Bundan tashqari u Prinston universiteti(bakalavr), Exeter, Oksfordd(magistratura), Garvard universiteti(PhD). Ko’rinib turibdiki, u ma’lumoti jihatdan ham proffesional siyosatchi. U AQSHning yumshoq kuchini qanday foydalanganligi to’g’risida kitobda to’liq yoritgan. Mening fikrim; kitobni neytral inson sifatida emas, balki amerikalik sifatida yozgan. Sababi, neytral emas amerikalik sifatida yozgani bilinib turadi, AQSHni barcha qilgan ishini ma’qullagani va muommalarni prezidentlarning muommosi ekanligini aytib o’tgan o’z asarida. Madaniyat-yumshoq kuch manbayidir. Asarda ‘hard power’ va ‘soft power’ atamaları bilan birgalikda-‘smart power’ atamasini ham ishlatgan. Bu degani, yumshoq kuch+qattiq kuch=aqlli kuch degan ma’nolarni anglatadi.<Soft power> har xil ko’rinishda bo’lishi mumkun masalan; bir davlat o’zga davlatga tilini, madaniyatini, yokida urf-odatini yoyish orqali ham bo’lishi mumkun. Bu orqali o’zga mamlakatga o’zining biron narsasiga qiziqishini ortirish orqali o’z manfaatini ko’zlashi mumkun. Bir tomondan bu kuchli madaniyatning kuchsiz madaniyatni bosib olishiga o’xshaydi, sababi kuchsiz madaniyat o’zining madaniyatini esdan chiqarib yokida unutgan holda qiziqqan mamlakati tomonga talpinadi va o’zi bilmagan holda birining maqsadini o’zinikiga aylantiradi. Bu kitob birinchi bo’lib maqola shaklida chop etilgan keyinchalik ommalashib ketgandan so’ng kitob holiga keltirilgan. Har bir mamlakatning o’ziga yarasha belgilari bo’ladi bu belgilar uning davlat sifatida dunyoda o’z o’rnini egallashga yordam beradi lekin, mamlakat o’zining madaniyatini yokida tilini, urf-odatini saqlab qolish imkoniga ega bo’lmasa, dunyoda bu mamlakatga o’rin yo’q. Dunyo arenasida omon qolmaydi qaysidir kuchli mamlakatning mustamlakasiga aylanadi, bu muqarrardir. Hozirgi globalizatsiya jarayonida esa, bu juda ham muhim va qiyindir, ko’pchilik sharq mamlakatlarining kuchli g’arb mamlakatlariga taqlidi kuchaygan bir davrda tahlikali vaziyat yuzaga kelmoqda. Bu o’z-o’zidan mamlakatlarni ogohlikka chaqiradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yumshoq kuchning asosiy predmeti yokida quroli desa ham, mubolag’a bo’lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar oraqli ko’pchilik mamlakatlar globalizatsiya ta’siri tushib qolmoqda, bu esa mamlakatning aholini propaganda qurboni bo’lishiga olib kelmoqda. Bu kitobda esa, AQSHning yumshoq kuchini ochib bergan, o’ylaymanki AQSHning yumshoq kuchi unga ko’plab foydalar olib kelgan ya’ni ish bergan. Sababi butun dunyo AQSHni hozirda eng demokratik mamlakat deb biladi va ko’pchilik AQSHga borish orzusidadir.

Kitobni Jozef Nay yozgan, ya’ni AQSH mudofaa vazirining tashqi aloqalar bo’yicha mutahasis, balki shu sababli ham asosiy mavzu AQSH atrofida aylangan bo’lishi ham mumkin. Bundan tashqari, eng kuchli yumshoq kuch egasi ham aynan AQSH qilib ko’rsatilgan to’g’ri muommlolar ham yozilgan lekin asosan mamlakatning eng yaxshi

tomonlari bod-bod takrorlangan. Kitob 2003-yil chop etilgani bois, shu vaqtgacha bo‘lgan siyosiy hodisalar yoritilgan asosan aytganimdek AQSHning siyosati. Yumshoq kuch maqsadlari; 1-Boshqa mamlakat hududiga kirib borish va ta’sir o‘tkazish. Bu orqali mamlakatning hayotiga ta’sir o‘tkazish aholini propaganda qilish, shu orqali sekin-asta qaramlikni hosil qilish. 2-Mamlakatni kuchiga ishontirish, bu eng muhimlaridan sababi mamlakatni obro’ va kuchiga ishontirish bu degani qurollsiz yengish demakdir, bu qo‘rqishga va ishontirishga olib kealadi. 3-O’sha mamlakatni qiziqtirish va ishontirish. Bu 1-qoidaga o‘xshab ketadi balki bir qimi desa ham bo‘ladi lekin, men alohida qism qilib oldim. Bunda har xil usullardan foydalanish mumkun; OAV, ijtimoiy tarmoq, televedinya, kino va ko‘ngil ochar ko‘rsatuv va dasturlar xatto kitob yoki jurnallar bo‘lishim ham mumkun. Xullas, hozir axborot asrida bu bumchalik qiyin emas istagan davlat, istagan ko‘rinishda yumshoq kuchdan foydalana oladi. Muhimi u o‘tkazyotgan yumshoq kuchi osha mamlakatga mos kelishi kerak bu eng muhimi. Sababi ba’zi bir mamlakatlarga yumshoq kuch ta’sir etmasligi ham mumkun. Bu degani yumshoq kuchni his eta olaydigan va shuna olaydigan darajada bo‘lishi kerak aholining fikrals qobilyati. Bu qanday bo‘ladi deydi qan bo‘lsak, kirib bormoqchi bo‘lgan mamlakatning urf-odati, turmush darajasi va iqtisodiy ahvollari o‘rganib chiqilishi kerak. Bir ajoyib fikr bor; Federal aloqalar komissiya a’zosi va axborot maslallari bo‘yicha vakil Nyuton Menyuaning; ‘g’oyalar un sarflangan 1 \$ mablag’ bombalar uchun sarflangan 100 \$ mablag’ga teng degandi’ {Jozef Nay.2003,p33}. Men o‘ylaymanki, teng emas balki ustun hamdir, sababi g’oyalar orqali butun insoniyatni saqlab qolish mumkun lekin bomba orqali faqatgini qirg’inborot qilish. Bundan tashqari yumshoq kuchnin qattiq kuchga qaraganda bir nechta afzalliklari bor. 1-iqtisoiy tomondan foydaliroq, ya’ni ko‘p mablag’ sarf qilish shart emas, hattoki ba’zan qattiq kuchga sarflangan mablag’ning o‘ndan birini ham sarf etish shart emas va qurbonlar bo‘lmaydi yumshoq kuchda. 2-ikkinchi tomonning ham roziligi. Ma’lumki qattiq kuchda ikkinchi tomonqarshi bo‘ladi va aziyat ko‘proq chekadi, qurbonlar bo‘ladi. 3-yumshoq kuch ishlatayotgan mamlakatda imij va jozibadorlik shakllanadi, ya’ni dunyo ko‘z o‘ngida jozibador va kuchli ko‘rindai yoki qadrli bo‘ladi. Qattiq kuchda esa buning aksi bo‘lishi mumkun. Yumshoq kuch manbalari bor ular; 1-madaniyat, 2-boshqalar uchun o‘rnak bo‘la olaydigan siyosiya qadriyatlar, 3-tashqi siyosat, 4-qo‘shimcha detallar ham bor; sport, ilm-fan va boshqalar. Yumshoq kuch deganda sharqdagi eng mashhur vakili bu-Maxatma Gandi u urushsiz qurollardan foydalanmasdan turib yumshioq kuch orqali maqsadga erishsa bo‘lishini isbotlagan yaqqol misoldir.

Bundan tashqari qattiq kuch har doim ham ko‘zlangan maqsadga erishishga har doim ham elt olmaydi bunga tarix guvoh, misol uchun, Amerika yadro quroliga ega bo‘lishiga qaramasdan Vyetnam bilan bo‘lgan urushda mag’lubiyatga uchradi. Yokida Sovet ittifoqi u ham yadro quroliga ega bo‘lgan davlat, inson resurslariga ega bo‘lgan mamlakat lekin, Afg’onistonga nisbatan mag’lubiyatga uchradi. Buyuk Britaniya qanchalik qudratli mamlakat bo‘lishiga qaramasdan, Folklend orollariga kirganida argentinaliklar inglizlarni chiqarib yoborgan. Bularning barchasi qattiq kuchning mag’lubitaini ko‘rsatib turibdi, qattiq kuchning mag’lubiyati yumshoq kuchga nisbatan ancha qimmatga tushadi har tomonlama.

Yumshoq kuchning ahamiyati juda kattadir uni inkor tib bo‘lmaydi va uning ta’sir doirasi ham, vaqti ham juda kengdir balki asrlar davomida ham ta’sir eta oladi.

Yumshoq kuch-hech qachon muqim bo‘lmaydi, u vaqt va makon ta’sirida doimiy o‘zgarib turadi{4}. Bu degani yumshoq kuch zamon bilan hamnafas deganidir. Yumshoq kuchning vositasi jozibador bo‘lganligi sababli, uni ko‘p tomonlama vaziyatda qo‘llash osonroqdir. Qattiq kuch esa, ma’lum bir vaziyat talab qiladi va undan foydalanish obro‘-e’tiborga ta’sir qiladi. Ma’lumki barcha davlatlar tashqi siyosatda o‘z milliy manfaatlarini ko‘zlaydilar, bu o‘z-o‘zidan shuni ko‘rsatadiki davlatlarni o‘g‘dirish qiziqtirish oson ish emas, lekin buni Aqsh uddalay olgan. AQSHning ustunligi shundaki, boshqa mamlakatlarga nisbatan aholisini farovonligi va demokratik islohotlari ustundir, bu boshqa fuqarolarni Aqshga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Jozef Nay shunday degan edi- ‘Yumshoq kuch-tahdid va mablag’siz hamkorlikka unday olishdir’ {Jozef Nay 2003, p157}. Aqsh esa, buni qo‘llay oldi. Hozirgi davrda kuch manbalari uchga bo‘linsa, ular; harbiy, iqtisodiy va yumshoq kuchlardir. Amerika bu uchala kuchda ham gegemon bo‘lishga harakat qilmoqda.

Qo‘shma Shtatlar juda ulkan yumshoq kuch resurslariga ega va ko‘pincha ulardan o‘zi hohlagan natijalarga erishish uchun yaxshi foydalanib kelmoqda lekin, o‘zi hohlagan natijalarga erishishiga davlat, ham nodavlat aktorlari yordam berishi yokida to‘sqinlik qilishi mumkin. Misol tariqasida ko‘p brendlar, mashhur kompaniyalar aynan AQSHda; dunyoning 100 ta kompaniyalarining 45 tasi va mashhur brendlarning ko‘plari shu yerdadir. Bu jozibalar insonni ohangrabodek o‘ziga tortadi. Tinchlikda g‘alaba qozonish urushda g‘alaba qozonishdan ko‘ra ancha murakkab va faqat yumshoq kuch vositasidagina erishsa bo‘ladi. Sababi kuch deganda faqat; tahdid, qurol yokida zo‘rovonlikni shunish hato fikrdir. G‘alaba qozonish bu-kam zarar ko‘rishdir, lekin qurol bilan buning iloji yo‘qdir. To‘g‘ri har doim ham faqat yumshoq kuchdan foydalanib bo‘lmaydi misoli uchun, AQSH Afg‘oniston, Iroq kabi masalalarda qattiq kuchdan foydalanishga majbur bo‘lishi bunga yaqqol misoldir. Lekin bu ham unga zarariga ishlaganiga tarix guvohdir. Iroq biulan 2003-yil urushi natijasi Amerikaning obro‘si Yevropa va boshqa ko‘plab mamlakatlarda tushib ketadi, oldingiga nisbatan 4 martaga paslaydi uning jozibadorligi. O‘n to‘qqizinchi asrdagi ba’zi yevropaliklar Amerikani erkinlik ramzi sifatida ko‘rishgan bo‘lsa, boshqlar, xususan muallif Charlz Dikens uni ‘soxta, xiylakor va nayrangchilar to‘dasi’-degan edi. Bu o‘z-o‘zidan obro‘sini pasayganini ko‘rishimiz mumkin {Jozef Nay, 2003, p145}. Mo‘ljallangan auditoriyani tushuna olish muvaffaqiyatli yumshoq kuchning juda muhim tarkibiy qismidir. Chet el jamoatchiligi oldida soatlab qandaydir jalb qiluvchi gaplar gapirilgan bilan ularning fikri birdaniga o‘zgarib qolishi amri mahol. Barcha ma’lumotlar madaniy ‘filtrdan’ o‘tadi, kamdan kam hollarda jamoatchilikka mo‘ljallangan shaklida yetkaziladi. Ba’zi davlatlar ommaviy dipolatiyani televideniya yoki radioeshitirishlar bilan emas, butunlay amaliy harakatlar bilan olib boriladi. Bunga Norvegiya yaqqol misol. Ba’zi mamlakatlar yumshoq kuch uchun ko‘plab pul bilan birga mehnat ham qiladi. Fransiya fransuz sivilizatsiyasini butun dunyoga yoyish uchun yiliga 1 milliard dollarga yaqin mablag‘ sarflaydi. Balki shu sababli ham Fransiya sayohat bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turar, u yerga yiliga 7 milliondan ziyod turist tashrif buyuradi.

Jozef Nay aytgandi; ‘Demokratiya-shahsiyat va erkinlik-fundamentalistlar nazdida o‘ta jirkanch; oshkora foxishalik va buzg‘unchi g‘oyalar kabilar’-deb{7}.Aqsh doim demokratiyaga harakat qilishi ko‘pchilikni o‘ziga jalb qiladi.Sababi shundaki, ko‘pchilik mamlakatlarda monarxiya rejimi yoki avtoritar rejimlar hukronlik qilmoqda, misoli uchun; hozirgi paytgacha 22 ta arab mamlakatlarining birortasida demokratik rejim yo‘q, bu esa erkinlik cheklangan degan fikrni keltirib chiqarishi mumkun. Ammo Amerikaning ham o‘ziga yarasha muommolari bor; umr ko‘rish davomiyligi, boshlang‘ich ta‘lim,ish xavfsizligi, sog‘liqni saqlash xizmatidan foydalanish yoki daromatdlar tengligi bo‘yicha dastlabki o‘rinlarda emas. Bundan tashqari uning yumshoq kuchga ishlatayotgan xarajati qattiq kuchga nisbatan ancha kamdir va Iroq bilan urushi natijasida ancha obro‘si pastladi. Muallif Ben Vattenbarg ta‘kidlaganidek, Amerika madaniyati ko‘boyamichilik, jinsiy aloqa, zo‘rvonlik, be‘manilik va materializmni o‘z ichiga oladi, ammo bu umumiy tasvir bo‘la olmaydi. U shuningdek, ochiq, mobil, inpopulistik va erikin bo‘lgan Amerika qadriyatlarini tasvirlaydi.”Bu kabi kontentlar ijobiy aks etadimi yoki yo‘qmi doimo o‘z xaridorini topadi”{Jozef Nay,2003,p104}. Amerika na harbiy gegemon, na jamoviy leviafan barpo etildi-u shunchaki erkinroq,biroz moslashuvchan hamda ko‘proq hur bo‘lgan maskan. Shuni o‘zi yetarli bo‘gan AQSHning obro‘sini o‘shishiga desa, xato bo‘ladi uning tutayotgan siyosati va uning diplomatik qobilyatini ham e‘tirof etish kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, yumshoq kuchni shunish bu g‘alabaning omili degani emas, uni to‘g‘ri ishlata olish g‘alabadir. Ba‘zi holatlar borki ular yumshoq kuchni istisno qiladi misoli uchun; KXDR prezidenti Kim Che In Amerika kinolarini yokida qo‘shiqlarni yoqtirishini aytgan ekan, lekin u degani u Amerikaparast degan eam balki umuman Amerikaga qarshiligi ma‘lum. Ya‘ni foydalanadi degan uni yaxshi ko‘radi degani emas, balki unga aml qilsa rostan ham yoqtirsa, ergashsagini bu yumshoq kuch bo‘ladi. Mamlakatlar hozirda yadro quroliga erishish poygasini o‘ynamoqda lekin,yumshoq kuchni unutish holatlari ham bo‘lmoqda bu degani bu vaziyatdan kim to‘g‘ri foydalansa o‘sha yutadi deganidir. Bu vaziyatda yumshoq kuchga katta e‘tibor berish kerak va harakatni kuchaytirish orqali mamlakatni o‘ziga qaram qilish eng to‘g‘ri yo‘ldi. Buni qurbonlarsiz va beziyon holatda faqat yumshoq kuch amalaga oshiradi. Mamlakatlar yumshoq kuchini oshirish orqaligina o‘z o‘rnini mustahkamlay oladi, agarda o‘zidan kuchli madaniyat ta’sriiga kirib qolib o‘zligini yuqotib qo‘yishi hech gap emas. Jozef Nayning “Yumshoq kuch” asari xalqaro munosabatlar va global siyosatda yangi yo‘nalish ochib bergan ilmiy kitoblardan biri hisoblanadi. Kitobning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, davlatlar faqatgina harbiy kuch yoki iqtisodiy ta’sir orqali emas, balki o‘z madaniyati, qadriyatlari va siyosiy idealari orqali ham global sahnada ta’sir kuchiga ega bo‘lishlari mumkin. Bunday yumshoq kuch, odatda, kuch ishlatmasdan, balki o‘ziga tortish va jozibadorlik orqali amalga oshadi.

Kitobda qattiq kuch (harbiy va iqtisodiy kuch) va yumshoq kuchning birgalikda qanday ishlashini ko‘rsatadi. Nye “aqli kuch” tushunchasini ham taklif qiladi, ya‘ni davlatlar o‘z kuch turlarini strategik jihatdan birlashtirishi lozimligini ta‘kidlaydi.Menimcha bu kuchning eng yaxshi shakli va bu kuchdan foydalanish kuchli va qudratli mamlakatlarning qo‘lidan keladi.{5}

Umuman olganda, “Yumshoq kuch” asari xalqaro siyosatda ko‘proq ko‘rinmas, ammo kuchli ta’sirga ega strategiyalardan foydalanishning zarurligi va afzalliklarini o‘rganadi. Bu kitob hozirgi zamon siyosatida faqat kuch ishlatish bilan emas, balki davlatning xalqaro obro‘si va madaniy jozibasi orqali ham muvaffaqiyatga erishish mumkinligini tushuntiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT:

1. Nye, J. (n.d.). Joseph Nye. Harvard Kennedy School. Retrieved March 26, 2025, from <https://www.hks.harvard.edu/faculty/joseph-nye>
2. Nye, J. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. Harvard University Press. Retrieved from <https://www.wcfia.harvard.edu/publications/soft-Power-Means-Success-World-Politics>
3. Nye, J. (2004). Yumshoq kuch. Harvard University Press